Ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish integratsiyasi

// 16 October 2024 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ta-lim-ilm-fan-ishlab-chiqarish-integratsiyasi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti mutasaddilari, professor-o‘qituvchilar “Navoiyazot”AJda bo‘lishdi. Muloqotda oliy o‘quv yurti haqida ma’lumot berilib, mutaxassislarni tayyorlash uchun yaratilgan imkoniyatlar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari xususida so‘z yuritildi.



Uchrashuv davomida ishlab chiqarishdagi muammolar, ularni ijobiy hal etish, chiqindilarni qayta ishlash, ilm-fan yangiliklarini amaliyotga tadbiq etish istiqbollari borasida fikr almashildi.

Shuningdek, mavjud texnologik jarayonlarni yangilash, bu yo‘nalishda korxona va universitet hamkorligini yanada mustahkamlash yuzasidan takliflar bildirildi.Muzokaralar chog‘ida kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlari belgilab olindi.





"NAVOIYAZOT" AJ AXBOROT XIZMATI